

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибатуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Aqli zaif bolalarda ayrim sezgi idroklariga psixologik yondoshuv

Xosilova Ziyofat Begmurotovna, Sobirova Mohinur Bahrom qizi

Психологический подход к некоторым чувственным восприятиям у детей с умственной отсталостью

Хосилова Зиефат Бегмуротовна, Собирова Мохинур Бахром кызы

Psychological approach to some sensory perceptions in mentally retarded children

Khosilova Ziyofat Begmurotovna, Sobirova Mohinur Bahrom kizi

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Inson sezgi analizatorlari yoki analizatorlar sistemasiga bevosita ta'sir etuvchi, narsa va hodisalarning butunligicha yoki ularning turli xususiyatlari o'zaro aloqasining shakllanish jarayoniga – idrok deyiladi. Idrok turli sezgilar asosida shakllanadi. Psixologiyada bu tushuncha quyidagi 5 turga, ya'ni ko'ruv, eshituv, taktil (teri sezgisi), ta'm bilish hamda hid bilish kabi farqlab o'rganiladi. Idrokning obyektiv faoliyati inson faoliyatining ilgarilanganligidir. Shu bilan birga faoliyat, amaliyot idrokning rivojlanishiga, harakatlarning to'la va to'g'ri aks etishiga yordam beradi. Aqli zaif bolalarga barcha faoliyat turlarining kech va to'liqsiz shakllanishi xarakterlidir. Bu tafakkur va nutqning ma'lum darajasidagi rivoji, qobiliyat, diqqat va o'zining irodaviy xatti-harakatlarini maqsadga yo'naltirish malakasiga bog'liq bo'ladi.
- **Kalit so'zlar.** Idrok, sezgi idroki, aqli zaif bola, sensor, taktil, ko'ruv idroki, patofiziologik, patopsixologik, protsess, differentsiallashtirish.
- **Абстрактный.** Процесс формирования отношений между предметами и явлениями в целом или их различными свойствами, непосредственно воздействующий на сенсорные анализаторы или системы анализаторов человека, называется восприятием. Восприятие формируется на основе различных ощущений. В психологии это понятие изучается путем различения следующих 5 типов: зрение, слух, осязание (кожные ощущения), вкус и обоняние. Объективная деятельность восприятия есть развитие человеческой деятельности. В то же время деятельность и практика способствуют развитию восприятия и обеспечивают полное и правильное отражение действий. Для детей с умственной отсталостью характерно позднее и неполное развитие всех видов деятельности. Это зависит от определенного уровня развития мышления и речи, способностей, внимания, умения направлять свои волевые действия на цель.
- **Ключевые слова.** Восприятие, чувственное восприятие, умственно отсталый ребенок, сенсор, тактильный, зрительное восприятие, патофизиологический, патопсихологический, процесс, дифференцированный.
- **Abstract.** The process of forming the relationship between objects and phenomena as a whole or their various properties, which directly affects the human sensory analyzers or system of analyzers, is called perception. Perception is formed on the basis of various sensations. In psychology, this concept is studied by distinguishing the following 5

types: vision, hearing, tactile (skin sensation), taste and smell. The objective activity of perception is the development of human activity. At the same time, activity, practice contribute to the development of perception, the full and correct reflection of actions. Mentally retarded children are characterized by late and incomplete formation of all types of activity. This depends on the development of thinking and speech at a certain level, abilities, attention and the ability to direct their volitional actions towards a goal.

- **Keywords:** Perception, sensory perception, mentally retarded child, sensor, tactile, visual perception, pathophysiological, pathopsychological, process, differentiated.

KIRISH

Ko'rish orqali atrof-muhitni idrok qilish juda murakkab jarayon bo'lib, bunda bir qancha qo'zg'atuvchilar ko'zga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'z bilan idrok qilishda analiz protsessi qanchalik aniq bo'lsa, sezishning sifati shunchalik kuchli, to'liq, aniq va differensial holda aks etadi.

Aqli zaif bolalarda ko'ruv idroki qator o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanib, bular atrof-olam va uni o'rganishga ta'sir ko'rsatadi. Bu xususiyatlarga obyektни ko'rishni idrok etishning sekinlashuvi kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy asoslangan adabiyotlarda aqli zaiflik holatida sensor yoki sezgi idroklarining sekinlashuv holatlari kuza-tilib, u ko'rish, eshitish hamda shunga o'xshash bir qancha idroklarning ishlash mexanizmlari va idrok jihatlariga bevo-sita o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shu o'rinda L.R.Mo'minovaning "Maxsus psixologiya"sida keltirilgan ma'lumotlarda ko'ruv idroki va eshituv idroki me'yorda rivojlanayotgan bolalarga nisbatan aqli zaif bolalarda sezilarli darajada orqada va jarayon mexanizm davomiyligining sekinlashuviga olib kelganligini tushunish mumkin.

F.X.Kuchkarovadan keltirilgan manbaalarda ham eshituv idrokining sustligi sabab, aqli zaif bolalarda nutq jarayon-larida ham bir qancha orqada qolish holatlarini kuzatish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aqli zaif bolalarning teri orqali sezish va idrok etishini eksper-imental o'rganish bo'yicha 2 ta tadqiqot ishi mavjud. Ulardan biri A.P.Gozova tomonidan bajarilgan bo'lib, o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan obyektlar, katta buyumlar va to'g'ri

shakllar orqali teri tuyish xususiyatlarini yuzga chiqarishdan iborat. Ma'lum bo'lishicha, katta yassi buyumlarni to'g'ri tanib olish soni o'qitish jarayonida oshib boradi. Oligofren bolalar yassi buyumlarga nisbatan, keng sig'imli predmetlarni oson-roq o'zlashtiradilar. Bundan tashqari, bolalar mustaqil rav-ishda yassi buyumlarni konturlash orqali o'rganib, olingan ma'lumotlarni analiz va sintezlashlari muhim hisoblanadi. R.B.Kaffemanasning fikricha, aqli zaif bolalarda teri orqali sezish idroki rivojlanishi uchun, dars va darsdan tashqari vaqtlarda ko'proq e'tibor qaratilsa muvaffaqiyatga erishiladi. Aqli zaif bolalar idrokini o'rganish, to'g'ri tashxis quyish uchun "Etalonlar metodikasi", "Rasmda kim yashiringan", "Raqamli kodlash", "Yetishmaydigan qismlarni top" nomli metodikalar-dan foydalanish tavsiya etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy asoslangan adabiyotlarda keltirilishicha, bolalarga tanish bo'lgan rangli rasmlarni davomiyligi 22 millisekund vaqttni tashkil etgan paytda ko'rsatganda, aqli zaif bolalarn-ing birontasi bu narsani bilmagan va to'g'ri ayta olmagan. Sog'lom rivojlangan 7 yoshli bolalarga aynan shunday sha-roitda ko'rsatilgan rasmlarning 57% ni to'g'ri izohlay olgan va taniy olgan. Nazorat vaqtini 42 millisekundga uzaytirganda, aqli zaif bolalardan 55% javoblarni eshitishi mumkinligi aniqlangan. Bunday sharoitda ularning sog'lom tengdosh-lari 95% holatda to'g'ri javob qaytaradi. Bundan xulosa qil-ish mumkinki, aqli zaif bolalarda sog'lom bolalarga nisbatan narsa va buyumlarnin tanib, eslab qolishi uchun uzoqroq vaqt kerak bo'ladi. Bu analiz-sintez jarayonining sekinlashuvi oligofren bolalarda uchraydigan patofiziologik va patopsix-ologik holat hisoblanadi. Olib borilgan maxsus tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif bolalarga berilgan masala qiyin-lashtirib borilganda, ulardagi sensor tizim axborotni qayta ishlash vaqti ancha sekinlashib ketadi. Bu tahlil natijalari, aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik vazi-yatlarda qo'l kelishi mumkin. Eshituv idrokining rivojlanmasligi tovushlarni ko'p hollarda

buzib talaffuz etilishi va nutqning kechikib rivojlanishiga olib keladi. Aqliy rivojlanishda muammolari bo'lgan bolalarda eshitish idrokini rivojlantirishda keng qo'llaniladigan usullar; predmetlarni yoki ularning tasvirini ko'rsatish, berilgan vazifalarni so'z bo'yicha bajarish, tovushlardan ichidan unli tovushlarni ajratish, so'zda birinchi unli tovushning belgisini ko'rish idroki bo'yicha aniqlash va boshqa bir qancha metodikalar orqali olib boriladi.

Eshituv idroki bolada erta rivojlanadi. Me'yorda rivojlanayotgan sog'lom bolaning 2-3 haftalikdan boshlab 5-6 oylik davriga qadar ovozsizlik, so'zlar ohangi va ritmiga nisbatan adekvat reaksiya boshlanadi. 2 yoshga yetganda ona tilidagi barcha tovushlarni eshitadi va uni bir-biridan ajratadi.

Aqli zaif bolalarda esa eshitish idroki kech shakllanadi. Bolalar atrofdagi odamlar nutqidagi tovushlarni farqlay olmaydilar, yangi so'zlarni o'zlashtira olmaydilar, artikulyatsion jihatdan o'xshash tovushlarni yaxshi ajrata olmaydilar. Eshitish idrokining yaxshi shakllanmaganligi bir tovushni ikkinchi bir tovushga almashtirishga, so'zning tovush tarkibini analiz qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Maxsausu tashkil qilingan mashg'ulotlarda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshitish idrokini shakllantirishda tovushlarni aniqlash, so'zdagi tovushlarni ajratish, sonini, o'rnini aniqlash ishlari olib borilishi lozim. Aqli zaif bolalarda nutqning to'g'ri shakllanishida fonematik eshituvning ahamiyati katta.

Bolada idrok etishning asosiy turlaridan yana biri teri yoki taktil idroki bo'lib, sezgi sistemasi teri orqali sezishni ta'minlaydi. U siypalash, issiq, sovuq (teri) va kinestetik analizatorlarni o'z ichiga oladi. Teri-tuyish analizatori qo'l hisoblanadi hamda qo'l orqali boshqa analizatorlardan olinadigan axborotlar aniqlashadi, kengayadi va chuqurlashtiriladi. Shu bilan birga buyumning og'irligi, hajmi, harakati va yuzasini aniqlashga qaratilgan sezgilar mavjud. Ularni aniqlash va sezish uchun ham teri sezgisining idroki juda muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan ma'lumotlar shuni qayd etadiki, aqli zaif bolalar bilan maxsus ta'lim olib borilganda ularning nutqi va fikrlashi, boshqa psixik jarayonlari, ko'rib idrok etishi yaxshilanadi, bajarilgan ishlar sezgi nuqsonlarini koreksiyalashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xosilova Ziyofat Begmurotovna – Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti - katta o'qituvchi / Хосилова Зиёфат Бегмуратовна – Университет информационных технологий и управления – старший преподаватель / Khosilova Ziyofat Begmurotovna – University of Information Technologies and Management – senior lecturer.

► ziyofatxosilova81@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-8596-6348>

2. Sobirova Mohinur Bahrom qizi - Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti - Defektologiya 2 bosqich talabasi / Собирова Мохинур Бахром кызы - Университет информационных технологий и управления - студентка 2 курса кафедры дефектологии / Sobirova Mohinur Bahrom kizi - University of Information Technologies and Management - 2nd year student of Defectology.

► eldarshaxzoda@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0005-2467-0898>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Mo'minova L.R. va boshqalar. "Maxsus psixologiya" – "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", T.: 2013.
- [2]. Adizova S. "O'qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va koreksion ishlari". - T., 2002.
- [3]. Ayupova M. "Logopediya" -- T., 2011.
- [4]. G'oziyev E. "Yosh psixologiyasi" - T., 1994.
- [5]. Mamedov K.Q., Shoumarov G.B. "Aqli zaif bolalar psixologiyasi" - T., "O'qituvchi", 1994.
- [6]. Kuchkarova F.X. "Maxsus psixologiyada bolalar idrokini rivojlantirish muammosi", "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi", 2/2021.